O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
G.Sh. Rixsiyeva
_______________
2022 yil “30” 06

# TURIZM ASOSLARI
# FANINING O‘QUV DASTURI
## (1-KURS)

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 1000000 | Xizmatlar sohasi |
| **Ta’lim sohasi:** | 1010000 | Xizmatlar ko‘rsatish sohasi |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 61010500 | Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (sharq tillari bo‘yicha) |

Toshkent-2022

| Fan/modul kodi | | O'quv yii | Semestr | Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| TA11-312 | | 2022-2023 | 1 | 2 | |
| **Fan/modul turi** | | **Ta'lim turi** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | | O'zbek | | 2 | |
| 1. | **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Turizm asoslari** | | 24 | 36 | 60 |

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni turizmning fundamental asoslari bilan tanishtirish, bo'lajak mutaxassislarga turizmning asl mohiyatini ochib berish, turizmning asosiy ilmiy tushunchalarini o'rgatish, uning taraqqiyot yoli hozirgi kundagi muammolarini aniqlash va tahlil qilish, turizm to'g'risidagi bilimlarni yaxlit tizimini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – nazariy va amaliy materiallarga tayangan holda turizmning mohiyati, tasniflanishi va o'ziga xos xususiyatlarini ajratish, uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, turizm rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash, turizm bozoriga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish,turizmni davlat tomonidan tartibga solish vositalari, turizmda iqtisodiy jarayonlarni o'rganish zarurligi, turizm sohasini isloh qilish va turistik faoliyatni boshqarishni takomillashtirish, turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash tamoyillarini o'rganish hisoblanadi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Turizm asoslari fanining maqsad va vazifalari.**

Turizm asoslari fanining maqsad va vazifalari.Fanning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni. O'zbekiston Respublikasining turizm to'grisidagi davlat siyosati.

**2-mavzu. Turizm rivojlanishining konsteptual asoslari.**

Turizm tushunchasi, maqsadlari va vazifalari. Turizmning shaxs va jamiyat uchun ahamiyati. Turizmning tasniflanishi, shakllari va turlari

**3-mavzu. Turizm sohasi turistik tizim sifatida.**

Turistik tizim tushunchasi, turistik tizimning tarkibi. Turistik tizimning ijtimoiy quyi tizimi. Turistik tizimning iqtisodiy quyi tizimi. Turizmning hududiy quyi tizimlari. Turistik destinatsiyalar, klasterlar, maxsus iqtisodiy zonalar. Turistik tizim faoliyatining samaradorligi.

**4-mavzu. Turistik faoliyatning iqtisodiy asoslari.**

Turizmning iqtisodiy mohiyati va mazmuni.Turizm eksporti. Turizm importi. Iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar. Turizm rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'siri. Turizmning iqtisodiy samaradorligi. Turistik faoliyatning ijobiy va salbiy jihatlari.

**5-mavzu. Turizm va barqaror rivojlanish.**

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi. Turizmning barqaror rivojlanishi:ta'riflar, tamoyillar, tashkiliy me'yoriy-huquqiy asoslar. Turizmning istiqboli: barqaror rivojlanishni ta'minlashning zamonaviy texnologiyalari.

**6-mavzu: Turizm bozori va segmenti.**

Turizm bozorining mohiyati mazmuni va vazifalari. Turizm bozorining tarkibi. Turizm bozorini segmetlash. Segmentlash turlari.Turizm bozoriga ta'sir etuvchi asosiy omillar.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Turizmning maqsadi va vazifalari
2. Turizmning tasniflanishi
3. Turizm iqtisodiy tizim sifatida
4. Turizm rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'siri.
5. Turizmning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar
6. Turizm bozorini segmentlash va turizm xizmati iste'molchilari
7. Turizm industriyasi muammolari va rivojlanish tendensiyalari
8. Turizm infratuzilmasining turizm rivojlanishidagi roli
9. Turoperatorlar va turagentlar xalqaro turizm bozorida
10. Turistik xizmatlarning zamonaviy bozorini rivojlantirish muammolari
11. Turistik mahsulotlar va turistik iste'mol xususiyatlari
12. Turistik resurslarning mintaqaviy turizmning rivojlanishiga ta'siri
13. Turizmni rivojlantirishda davlatning roli
14. Turizmda xavfsizlikni ta'minlashning xalqaro tajribasi
15. Jahon turizmi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va tendenstiyalari

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Turizm kompleks o'rganish ob'ekti sifatida
2. Turizmning rivojlanish bosqichlari va omillari
3. Turizmning tashkiliy asoslari
4. Turizm tushunchasiga tizimli yondoshuv
5. Turizmning iqtisodiy xususiyatlari
6. Turizmning global omillari (mavsumiylik, siyosiy iqtisodiy va tabiiy omillar)
7. Turistlarga xizmat ko'rsatish texnologiyalari
8. Turizm industriyasining muammolari
9. Turist oqimlarining global miqyosda taqsimlanishi
10. Turist oqimlarining yonalishlariga ta'sir etuvchi omillar

| | | |
|---|---|---|
| | 11. Franchayzing turizmni boshqarishning zamonaviy shakli sifatida<br>12. Turoperatorlik va turagentlik faoliyat<br>13. Turizmning milliy iqtisodiyotda tungan o'rni<br>14. Turistik marshrutni tashkil etish<br>15. Jahon turizm bozorining evolyutsion rivojlanishi<br>16. Ijtimoiydemografik o'zgarishlarni jahon turizm bozoriga ta'siri<br>17. Milliy tur mahsulotlar va ularning xalqaro turistlarni jalb qilishdagi ahamiyati.<br>18. Mamlakatlar milliy turizmi rivojlanishidagi asosiy tamoyillar.<br>19. Zamonaviy turizm yo'nalishlari tashkil etishning milliy turizmni rivojlantirishdagi o'rni.<br>20. Xalqaro turizmda transport tizimining roli<br>21. Mehmonxona biznesi turizm industriyasining bir qismi sifatida<br>22. O'zbekiston respublikasida turizm infratuzulmasini rivojlantirish chora-tadbirlari<br>23. Turistik xizmatlar tarkibi<br>24. Turistik sayohatlar xavfsizligini ta'minlash<br>25. Jahon turizmi rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari va istiqbollari<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari**<br>Talaba bilishi kerak:<br>• turizmning asl mohiyatini, maqsadi va vazifalarini, turizmning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini, unga doir nazariy qarashlar hamda turizmning tasniflanishi, shakllari va turlari, turistik tizimning tarkibi, turistik faoliyatning iqtisodiy asoslari, turizmning barqaror rivojlanish tarif tamoyillari, turizm bozorining tarkibi va uni segmentlash, turizm bozoriga tasir etuvchi asosiy omillar, turizm industriyasining tarkibi, turizm rivojlanishida infratuzilmaning roli, turoperatorlik va turagentlik faoliyati, turistik xizmatlar tasnifi, turistik mahsulotlar turlari va ularning tarkibiy qismlari, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish hamda turizm sohasidagi xalqaro tajriba va global tendenstiyalar ***to'g'risida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>• turizm faoliyati bilan bog'liq asosiy atamalar va tushunchalarni professional ravishda ishlatish, turistik faoliyatni huquqiy tartibga solish bo'yicha qonun va me'yoriy hujjatlardan foydalanish, turistik xizmatlar bozorining holati va tuzilishi to'grisidagi ma'lumotni qidirish va undan foydalanish, turizm rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash, turizm infratuzilmasi rivojlanishining muammolarini bartaraf etish bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqish, jahon turizmi rivojlanishining zamonaviy tendenstiyalarini aniqlash hamda O'zbekiston turizmi rivojlanishining hozirgi holatini tahlil qilish va baholash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** |

| | |
|---|---|
| | • turizmning shaxs va jamiyat uchun ahamiyatiga baho berish, turistik faoliyatining samaradorligini tahlil qilish, turistik faoliyatning ijobiy va salbiy jihatlarini qiyoslash, turizm bozoriga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, Turistik xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilish, turizm infratuzilmasi rivojlanishining huquqiy asoslari va turizm sohasida xalqaro va hukumatlararo tashkilotlarning faoliyatini tahlil qilish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi lozim. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. M.T.Mirzayev, M.T.Алиева Turizm asoslari. O'quv qo'llanma T.2011<br>2. I.S.Tuxliyev,R.Hayitboyev,B.SH.Safarov,G.R.Tursunova.Turizm asoslari. Darslik T.2014<br>3. Е.Л.Писаревский. Основы туризма. Москва 2014<br>4. Tourism and Hospitality in B.C. by Morgan Westcott (Editor) is used under CC BY 4.0 Licence.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>5. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. 2019 yil 18 iyul, O'RQ-549-son.<br>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni. 2019 yil 5 yanvar.<br>7. 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli Farmoniga ilova.<br>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-son Farmoni. 2019 yil 13 avgust.<br>9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar. |

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbaalari**<br>10. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>11. www.uzbekistanairways.uz - O‘zbekiston havo yo‘llari.<br>12. www.uzbekrailways.uz -O‘zbekiston temir yo‘llari.<br>13. www.uzbektourism.uz – O‘zbekiston respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi rasmiy sayti. |
| **7.** | O‘quv dasturi “Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizmi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 202_ yil “___” __________ dagi “___” –sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br><br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022 - yil “30” 06 dagi “11” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>Abdullayeva Sh.Y. - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm” kafedrasi o‘qituvchisi |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Gulomova G.P.- O‘zXIA, “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, iqtisod fanlari nomzodi<br>Hoshimov P.Z.– O‘zMU, “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent |